

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

G‘AYBULOV YULDOSH SHERMONOVICH

**QOVUSHOQ VA QOVUSHOQ-ELASTIK SUYUQLIKLARNING
NEFT CHIQRISH QUDUG‘IDA NOSTATSIONAR HARAKATI**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

G‘aybulov Yuldosh Shermonovich

Qovushoq va qovushoq-elastik suyuqliklarning neft chiqarish qudug‘ida
nostatsionar harakati..... 3

Гайбулов Юлдош Шермонович

Нестационарное движение вязкой и вязкоупругой жидкостей в
эксплуатационной нефтяной скважине..... 21

Gaybulov Yuldosh Shermonovich

Unsteady flow of viscous and viscoelastic fluids in a production oil well.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

G‘AYBULOV YULDOSH SHERMONOVICH

**QOVUSHOQ VA QOVUSHOQ-ELASTIK SUYUQLIKLARNING NEFT
CHIQRISH QUDUG‘IDA NOSTATSIONAR HARAKATI**

01.02.05 – Suyuqlik va gaz mexanikasi

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.21'hi/FM1079 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Akilov Jaxon fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy oponentlar:	Normurodov Chori Begaliyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor Burnashev Vladimir Fitratovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O'Razboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 raqamli Ilmiy kengashning «22» aprel 2025 yil soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (3 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «07» aprel kuni tarqatildi.
(2025 yil «07» aprel da 1 raqamli restr bayonnomasi)



R.I.Xalmuradov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

O'.A.Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

B.X.Xo'jayorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-
matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi vaqtda neft sanoati rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri sifatida nonyuton neftlarni qazib chiqarish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda nonyuton neftlar joylashgan konlarni o'zlashtirish va quduqlarni ekspluatatsiya qilish samaradorligini oshirishda neft xususiyatlarining quduq tubida joylashgan plunjerli nasos ishlashining ko'rsatkichlariga bo'lgan ta'sirini hisobga olib ishlatishga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, shtanglar kolonnasi va ko'targich truba orasidagi halqa sohada suyuqlik harakati nostatsionar bo'lganligi sababli, neft quduqlari shtangali nasoslar orqali ekspluatatsiya qilinganda, quduq ustuni bo'ylab suyuqlik bosim kuchining plunjerga bo'lgan bosim natijasida shtanglar kolonnasining cho'zilib, uzilib ketishining oldini olishga alohida e'tibor berilmoqda.

Jahonda anomal neftlar joylashgan quduqlarni ekspluatatsiya qilish, neftlarni quvurlar orqali uzatish, qovushoq-elastik suyuqliklarning silindrik quvurlardagi nostatsionar harakatini masalalarini yechishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan nonyuton neftning qovushoqlik xususiyatlarini va relaksatsiya hamda kechikish vaqtlarini hisobga olgan holda neftlarni qazib chiqarish, nonyuton suyuqliklarning ekspluatatsiya qilinayotgan quduqlardagi shtanglar kolonnasi va silindr orasidagi harakat jarayonlarini matematik modellashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, gidrodinamik usullarni keng qo'llash orqali neft qudug'idagi plunjerga bo'ladigan gidrodinamik bosimni baholash va nonyuton suyuqliklarning nostatsionar harakatdan statsionar harakatga o'tishida relaksatsiya xususiyatlarining ta'sirini aniqlash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda bir qancha konlarining neftlari tarkibida yuqori miqdorda asfalten va smola moddalari mavjud bo'lib nonyuton qovushoq-elastik xususiyatiga ega ekanligini hisobga olib, ularni qazib olishga oid tadqiqotlar o'tkazish va amalda qo'llash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berishni ta'minlash"¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, yuqori qovushoqli neft joylashgan quduqlarni shtangali nasoslar orqali ekspluatatsiya qilishda neftning reologiya xususiyatini hisobga olib nasoslar ishlashining samaradorlik darajasini oshirish va ekspluatatsiya texnologiyasi jarayonini boshqarishda gidrodinamika usullarini keng qo'llash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4388-son "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

to'g'risida", 2017-yil 30-iyundagi PQ-3107-son "Neft-gaz tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Nonyuton sistemalarining reologiyasi va nonyuton suyuqliklarning trubalarda harakatlanishi dunyoning yetakchi olimlari G.Astarista, A.Mahmood, A.S.R.Duarte, Yu.Andrienko, C.Fetecau, L.Casanellas, R.P.Chhabra, A.Dennis, Fei Jiang, I.Fridtjov, R.Hilfer, A.Madurange, N.D.Waters, Tan Wenchang, V.Mathur, T.Wenchang, A.X.Mirzajanzade, P.M.Ogibalov, B.A.Yufin, R.S.Gurbanov, I.M.Ametov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. O'zbekistonda yuqori qovushoqli va og'ir neftlarni qazib olishga J.A.Akilov, B.X.Xo'jayorov, A.X.Agzamov, E.K.Ermatov, V.F.Burnashev, J.M.Maxmudov, M.S.Djabbarovlarning ishlari bag'ishlangan. Shu bilan birga, hozirgi kunga qadar chuqurlikda plunjerli nasos joylashgan quduqlarda neftlar harakatining gidrodinamik tadqiqotlari, ularning relaksatsion xususiyatlarini hisobga olgan holda, to'liq amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq C-2018 "Suyuqlik, gaz va deformatsiyalanuvchi qattiq jismlar mexanikasining dolzarb muammolari" (2018-2023) loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qovushoq va qovushoq-elastik suyuqliklarning nasos silindri va shtanglar kolonnasi orasidagi halqa sohada nostatsionar harakatining analitik yechimlarini olish, tahlil qilish va plunjerga bo'lgan to'liq gidrodinamik bosimni aniqlash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nnyuton va relaksatsiyalanuvchi suyuqliklarning nostatsionar tekis oqimlari masalalarining yangi yechimlarini ishlab chiqish;

qovushoq va qovushoq-elastik neftlarning ekspluatatsiya qudug'idagi nostatsionar harakatida plunjerga bo'lgan bosimga relaksatsiya vaqtining ta'sir darajasini sonli hisoblash;

qovushoq-elastik suyuqlikning relaksatsiya va kechikish vaqtlarining birgalikda plunjerga bo'lgan gidrodinamik bosimga ta'sirini keltirib chiqish;

qovushoq-elastik suyuqlikning nostatsionar harakatdan statsionar holatga o'tish jarayonini tadqiq qilish, gidravlik qarshilik koeffitsiyentini aniqlash va sonli tadqiq qilish usulini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida nonyuton neftlar chiqariladigan neft qazib olish konlari olingan.

Tadqiqotning predmetini matematik va reologik modellar, nonyuton neftlarning quvurlardagi harakati jarayonlarini gidrodinamik tahlil qilish va sonli hisoblash usullari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nonyuton suyuqliklarning gidrodinamikasi nazariyasi, nonyuton suyuqliklarning reologiya modellari va harakat tenglamalari hisoblash eksperiment usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nyuton va relaksatsiyalanuvchi suyuqliklarning nostatsionar tekis oqimlari masalalarining yangi yechimlari ishlab chiqilgan;

qovushoq va qovushoq-elastik neftlarning ekspluatatsiya qudug'ida nasos silindri va shtanglar kolonnasi orasidagi maydonda harakatlanayotganda neftning plunjerga bo'lgan umumiy bosimiga relaksatsiya vaqtining ta'siri aniqlangan;

relaksatsiya va kechikish vaqtlarini hisobga olgan holda, quduqda nasos silindri va shtanglar kolonnasi orasidagi halqali maydonda qovushoq va qovushoq elastik suyuqlikning nostatsionar harakati masalalarini yechishning yangi uslubi ishlab chiqilgan;

qovushoq-elastik suyuqlikning nostatsionar harakatdan statsionar holatga o'tish jarayoni tadqiq qilingan va suyuqlikning nostatsionar harakatdagi gidravlik qarshilik koeffitsiyenti aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

nonyuton suyuqliklarning ekspluatatsiya qilinayotgan quduqlardagi shtanglar kolonnasi va silindr orasidagi harakati jarayonlarini matematik modellashtirish usuli taklif etilgan;

nonyuton neft olinayotgan quduqda suyuqlikning plunjerga to'liq bosimni aniqlashning gidrodinamik usuli ishlab chiqilgan;

neftning relaksatsiya va kechikish xususiyatlarini hisobga olgan holda plunjerga bo'lgan to'liq bosimni aniqlash usuli ishlab chiqilgan;

nonyuton suyuqliklarning nostatsionar harakatdan statsionar harakatga o'tishida relaksatsiya xususiyatlarining ta'sirini aniqlash usuli ishlab chiqilgan.

qovushoq-elastik suyuqlikning silindrik trubadagi nostatsionar laminar harakatida gidravlik qarshilik koeffitsiyentini hisoblash usuli berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tutash muhit mexanikasining fundamental qonunlari, klassik gidrodinamika va nonyuton suyuqliklarning reologiyasi, matematik-fizika tenglamalari, shuningdek, zamonaviy sonli usullardan foydalanilganlik bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati relaksatsiya xususiyatiga ega bo'lgan nonyuton muhitlar asosida quduqlarni ishlatish jarayonini modellashtirishning yangi ilmiy-texnik yo'nalishi ishlab chiqilganligi, suyuqliklar harakati nazariyasi va amaliyoti rivojiga qo'shgan hissasi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati neft konlarini ekspluatatsiya qilishda nasos qurilmalarining ratsional rejimda ishlashini ta'minlash va texnologik jarayonlarini boshqarish uslubi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qovushoq va qovushoq-elastik suyuqliklarning neft chiqarish qudug'ida nostatsionar harakati bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

shtangali nasoslardan foydalangan holda nonyuton neftlarni chiqarishda quduqlarni ekspluatatsiya qilish gidrodinamik jarayonlarni nazariy o'rganishning olingan natijalari "Qo'qon neftgazparmalash" aksiyadorlik jamiyati boshqarmasiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2024 yil 23 avgustdagi № 04-05-6708- son ma'lumotnomasi). Natijada, plunjerning harakat tezligini oshirish orqali nasosning uzatish koeffitsiyentini 0,26 dan 0,33 ga yetkazish imkonini bergan;

Yuqori qovushoqli neftlar qazib olinadigan quduqlarni ishlatish bo'yicha tavsiyalar "Qo'qon neftgazparmalash" aksiyadorlik jamiyati boshqarmasida joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligining 2024 yil 23 avgustdagi № 04-05-6708- son ma'lumotnomasi). Natijada quduqda plunjer nasosining tezligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 5 ta Xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqolalar, jumladan, 4 tasi Respublika va 5 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan, 3 ta EHM uchun dasturga guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 97 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tanlangan mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Nonyuton suyuqliklarning trubalardagi harakatini o'rganish va natijalarini neft qazib olishda qo'llash**" deb nomlangan birinchi bobida trubalarda suyuqlikning gidrodinamik bosimini modellashtirish muammolariga oid tadqiqotlar sharhlangan va tahlil qilingan.

"Neft qazib olishda nonyuton suyuqliklar harakati bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning hozirgi zamon holati" nomli 1.1-paragrafda nyuton va nonyuton suyuqliklarning reologik modellari haqida ma'lumot berilgan, nonyuton neftlarning reologiyasi qaralgan. Oxirgi yillargacha neft qazib chiqarish masalalarini yechishda

ko'pgina nyuton qonuniga bo'ysunmaydigan suyuqliklar uchun statsionar reologik modellar ishlatilgan. Bunday reologik modellarga Shvedov-Bingam modeli, darajali suyuqliklar modeli, Kesson va Shulman reologik modellari kiradi. Bu modellar asosida ko'pgina neft qazib chiqarish masalalari yechilgan. Lekin, tajribalarning ko'rsatishicha, tarkibida katta miqdordagi asfalten-parafin, smolalar bo'lgan neftlarning reologik modellari yuqorida aytilgan reologik modellardan farq qiladi. Bunday neftlar relaksatsiya xususiyatiga ega bo'lib, Maksvell va Oldroyd modellariga mos kelishi aniqlangan.

1.2-paragrafda suyuqlikning quduqdagi trubalar va halqasimon sohalardagi nostatsionar harakatining asosiy tenglamalari keltirilgan.

Dekart koordinatalarida bir o'lchovli oqimlar uchun, massaviy kuchlar hisobga olinmaganida, harakat tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\rho \frac{\partial v(y,t)}{\partial t} = -\frac{\partial p}{\partial z} + \frac{\partial \tau(y,t)}{\partial y}. \quad (1)$$

Silindrik koordinatalarda, o'qqa nisbatan simmetrik oqimlar uchun :

$$\rho \frac{\partial v(r,t)}{\partial t} = -\frac{\partial p}{\partial z} + \frac{1}{r} \frac{\partial (r\tau)}{\partial r}, \quad (2)$$

bu yerda x, y – dekart koordinatalari; t – vaqt; r – radial koordinata; v – tezlik, ρ – suyuqlik zichligi; τ – urinma kuchlanish; p – bosim.

Bu harakat tenglamalari uzluksizlik tenglamasi bilan birga yopiq bo'lmagan tenglamalar sistemasini hosil qiladi. Yetishmagan tenglama suyuqlikning eksperimental kashf etilgan xususiyatlarini ifodalovchi fizik farazlar asosida topiladi. Qovushoq suyuqliklar uchun Nyutonning ushbu qovushoq ishqalanish qonuni o'rinli:

$$\tau = \mu \frac{\partial v}{\partial r}, \quad (3)$$

bu erda μ – dinamik qovushoqlik.

O'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha tarkibida yuqori miqdorda parafin, asfalten va smolalar bo'lgan neftlar uchun Maksvell

$$\tau + \lambda \frac{\partial \tau}{\partial t} = \mu \frac{\partial v}{\partial r}, \quad (4)$$

va umumiy holda Oldroyd

$$\tau + \lambda_1 \frac{\partial \tau}{\partial t} = \mu \left(\frac{\partial v}{\partial r} + \lambda_2 \frac{\partial^2 v}{\partial r \partial t} \right), \quad (5)$$

reologik holat tenglamalari qo'llanilgan.

bu erda λ_1 – relaksatsiya vaqti; λ_2 – kechikish vaqti.

(1), (2) harakat tenglamalari va (3)-(5) reologik tenglamalar yopiq sistemani hosil qiladi.

“Yassi trubada qovushoq va qovushoq-elastik suyuqlikning nostatsionar harakati” deb nomlangan ikkinchi bobda chuqurda joylashgan nasos yordamida neft quduqlarini ishlatishda ko'taruvchi trubadagi suyuqlik(neft)ning nostatsionar

harakati o'rganilgan. Plunjerning harakatlanishi paytida unga suyuqlikning gidrodinamik bosimini aniqlash masalasi qaralgan.

Plunjerga bo'lgan suyuqlikning umumiy gidrodinamik bosimi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$p(t) = \Delta p(t) + (L - h)\rho g + p_0, \quad (6)$$

bu erda $p(t)$ – suyuqlikning ko'taruvchi trubadagi nostatsionar laminar harakatida plunjerga umumiy(to'la) bosim; $\Delta p(t)$ – gidrodinamik bosimning pasayishi; p_0 – quduq og'zidagi bosim; L – ko'tarilgan suyuqlik ustunining balandligi; h – chuqur nasosning botish chuqurligi; ρ – suyuqlik zichligi; g – erkin tushish tezlanishi.

Chuqurda joylashgan nasoslar bilan neft quduqlarini ishlatish amaliyotida, ko'p hollarda $\alpha = r_2 / R > 0.2$ munosabat bajariladi, bu erda R – ko'targich truba radiusi; r_2 – shtanga radiusi. Bunday holda, truba va shtanga orasidagi radial bo'shliqni yassi yoriq sifatida qabul qilish mumkinligi ko'rsatilgan.

2.1-paragrafda yassi trubada plunjerga neft gidrodinamik bosimini aniqlash masalasi qaralgan. (1) va (3) ga muvofiq

$$\rho \frac{\partial v}{\partial t} = \mu \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + q(t), \quad (0 < y < l), \quad (7)$$

bu erda v – ko'taruvchi trubadagi suyuqlikning tezligi; $l = R - r_2$; $q(t) = -\partial p / \partial z$ – trubaning Oz o'qi bo'ylab yo'nalgan gidrodinamik bosim o'zgarishi, $q(t) \approx \Delta p / L$. (7) uchun boshlang'ich va chegaraviy shartlar quyidagicha

$$v(y, 0) = 0, \quad (0 \leq y \leq l); \quad v(0, t) = v_p(t), \quad v(l, t) = 0, \quad (t > 0), \quad (8)$$

bu yerda $v_p(t)$ – plunjerning tezligi. Ko'p hollarda, vaqtning bitta T to'liq siklida plunjerning tezligi uchun

$$v_p(t) = \frac{24v_m}{\pi^3} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1 - (-1)^n}{n^3} \sin \frac{2\pi n t}{T}, \quad (9)$$

formuladan foydalaniladi, bunda v_m – shtangalar kolonnasi osilgan nuqtaning o'rtacha tezligi.

Gidrodinamik bosim o'zgarishini topishda suyuqlik oqimining quyidagi balansidan foydalanamiz:

$$Q = \pi(r_1^2 - r_2^2)v_p(t) = 2\pi \int_0^l (y + r_2)v(y, t)dy, \quad (10)$$

bu yerda Q – suyuqlik sarfi; r_1 – plunjer radiusi. (10) tenglik

$$Q = \pi(r_1^2 - r_2^2)v_p(t) = 2\pi \int_{r_2}^R r v(r, t)dr,$$

tenglikdagi integralda $y = r - r_2$ almashtirish bilan hosil bo'ladi.

(6)-(10) qaralayotgan jarayonning matematik modelini ifodalaydi.

Quyidagi o'lchovsiz kattaliklarni kiritamiz:

$$t' = \frac{U}{l}t, \quad x = \frac{y}{l}, \quad r_1' = \frac{r_1}{l}, \quad r_2' = \frac{r_2}{l}, \quad T' = \frac{U}{l}T, \quad v'(t') = \frac{v(t)}{U}, \quad v_p'(t') = \frac{v_p(t)}{U}, \quad a_p'(t') = \frac{l}{U^2}a_p(t),$$

bu yerda U – xarakterli tezlik.

(6)-(10) ni o'lchamsiz o'zgaruvchilarda quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{\partial v'}{\partial t'} = \frac{1}{\text{Re}} \frac{\partial^2 v'}{\partial x^2} + q'(t'), \quad (0 < x < 1);$$

$$v'(x, 0) = 0, \quad (0 \leq x \leq 1); \quad v'(0, t') = v'_p(t'), \quad v'(1, t') = 0, \quad (t' > 0);$$

$$\frac{r_1'^2 - r_2'^2}{2} v'_p(t') = \int_0^1 (x + r_2') v'(x, t') dx,$$

bu yerda $\text{Re} = U\rho l / \mu$, $q'(t') = q(t)l / (\rho U^2)$.

Masala Laplas integral almashtirishi yordamida yechilib, bosim o'zgarishi uchun quyidagi formula olindi:

$$\bar{q}(t') = \frac{4}{\text{Re}(1 + 2r_2')} \left\{ f_0 v'_p(t') + \sum_{k=1}^{\infty} \left[\int_0^{t'} e^{-\bar{a}_k^2(t'-\xi)} a'_p(\xi) d\xi + \frac{w_k \varphi_k}{\psi_k} \int_0^{t'} e^{-\bar{w}_k^2(t'-\xi)} a'_p(\xi) d\xi \right] \right\}, \quad (11)$$

bu yerda $a_k = 2\pi k$ ($k = 1, 2, \dots$) $\sin(x/2) = 0$ tenglamaning musbat ildizlari; $w_k = 2z_k$ ($k = 1, 2, \dots$); z_k $\text{tg}z = z$ tenglamaning musbat ildizlari; $\bar{a}_k = a_k / \sqrt{\text{Re}}$, $\bar{w}_k = w_k / \sqrt{\text{Re}}$. (6) ga muvofiq to'la bosim:

$$p(t) = \frac{\rho U^2 L}{l} q'(t') + (L - h)\rho g + p_0. \quad (12)$$

Olingan formulalardan foydalanib, suyuqlik qovushoqligi va zichligi o'zgarishining plunjerga gidrodinamik bosimga ta'siri o'rganilgan.

2.2-paragrafda qovushoq elastik suyuqlik relaksatsiya vaqtining yassi trubadagi gidrodinamik bosimga ta'siri qaralgan. Masalani yechish uchun o'lchamsiz kattaliklardagi

$$\left(1 + \lambda' \frac{\partial}{\partial t'} \right) \frac{\partial v'}{\partial t'} = \frac{1}{\text{Re}} \frac{\partial^2 v'}{\partial x^2} + \left(1 + \lambda' \frac{\partial}{\partial t'} \right) \bar{q}(t'),$$

tenglama va quyidagi boshlang'ich va chegara shartlar hosil qilingan:

$$v'(x, 0) = 0, \quad \frac{\partial v'(x, 0)}{\partial t'} = 0, \quad (0 \leq x \leq 1); \quad v'(0, t') = v'_p(t'), \quad v'(1, t') = 0. \quad (13)$$

$$\frac{r_1'^2 - r_2'^2}{2} v'_p(t') = \int_0^1 (x + r_2') v'(x, t') dx,$$

bu erda $\lambda' = \lambda U / l$. Laplas almashtirishidan foydalanib, quyidagi formula olingan:


$$q'(t') = \frac{4}{\text{Re}(1 + 2r_2')} \cdot \left\{ f_0 v'_p(t') - f_0 \int_0^{t'} a'_p(\xi) e^{-2a(t'-\xi)} d\xi + 2 \sum_{k=1}^{\infty} \int_0^{t'} \left(\frac{\sin a\beta_k \xi}{\beta_k} + \frac{\varphi_k w_k \sin ag_k \xi}{\psi_k g_k} \right) a'_p(t'-\xi) e^{-a\xi} d\xi \right\}, \quad (14)$$

bu yerda $a = 1/(2\lambda')$, $\beta_k = \sqrt{1 - 4\lambda' \bar{a}_k^2}$, $g_k = \sqrt{1 - 4\lambda' \bar{w}_k^2}$.

Suyuqlikning plunjerga umumiy bosimi (14) ni (12) ga qo'yib aniqlanadi.

Olingan formulalar yordamida quyidagi ma'lumotlardan foydalangan holda sonli tajribalar o'tkazildi: $p_0 = 10^5 \text{ Pa}$, $L = 1000 \text{ m}$, $h = 100 \text{ m}$, $U = v_m = 0.60 \text{ m/s}$, $T = 20 \text{ s}$, $R = 0,030 \text{ m}$, $r_1 = 0,02988 \text{ m}$, $r_2 = 0,010 \text{ m}$.

1-rasmda plunjerning yuqoriga harakati davomida unga bo'lgan gidrodinamik bosimga neft relaksatsiya vaqtining ta'siri keltirilgan. Rasimda $\lambda = 0$ qovushoq suyuqlikka mos keladi.



1-rasm. Plunjerning yuqoriga harakati davomida unga bo'lgan gidrodinamik bosimga neft relaksatsiya vaqtining ta'siri

1 – $\lambda = 0$; 2 – $\lambda = 0,5$ s; 3 – $\lambda = 1$ s; 4 – $\lambda = 4$ s. $\mu = 0,1$ Pa·s, $\rho = 920$ kg/m³.

Grafiklardan ko'rinadiki, plunjer harakatining boshlanishida va oxirida gidrodinamik bosim sakrashga ega. Suyuqlikning relaksatsiya xususiyati nyuton suyuqligiga qaraganda bosimning tezlashishda kamayishiga, sekinlashishda esa oshishiga olib keladi. Grafikning maksimumi vaqt o'qi bo'ylab o'ngga siljiydi.

Parametrlarning $\lambda = 0, 3, 8$ s;

a. $\rho = 750$ kg/m³, $\mu = 0,047$ Pa·s; b. $\rho = 930$ kg/m³, $\mu = 0,2$ Pa·s.

qiymatlari uchun, plunjerning yuqoriga qarab harakati boshida (tezlanish paytida) bosim ko'tariladi. Bu nasosning ishlashi paytida shtanga-truba-suyuqlik tizimida paydo bo'ladigan inersial kuchlarning ta'siridan kelib chiqadi. Tezlashuv jarayonida neftning qovushoq-elastik xususiyatlari qovushoq suyuqlikka nisbatan umumiy bosim qiymatlarining kamayishiga olib keladi va ko'tarilish sekinlashganda va tushish sekinlashganda, aksincha, oshadi. Relaksatsiya xususiyatlarining oshishi bilan qovushoq va qovushoq-elastik suyuqlikning bosim profillari orasidagi farq ortadi.

2.3-paragrafda kuchlanish relaksatsiyasi va siljish tezligi kechikishi xususiyatlarining yassi trubada gidrodinamik bosimga ta'siri qaralgan. Jarayonning matematik modeli (5), (7) tenglamalar yoki ulardan hosil qilinuvchi

$$\rho \left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t} \right) \frac{\partial v}{\partial t} = \mu \left(1 + \lambda_2 \frac{\partial}{\partial t} \right) \frac{\partial^2 v}{\partial y^2} + \left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t} \right) q(t), \quad (0 < y < l), \quad (15)$$

(15) tenglama quyidagi

$$v(y, 0) = 0, \quad \frac{\partial v(y, 0)}{\partial t} = 0, \quad (0 \leq y \leq l). \quad v(0, t) = v_p(t), \quad v(l, t) = 0, \quad (t > 0), \quad (16)$$

boshlang'ich va chegaraviy shartlardan (10) tenglikdan iborat.

Masala analitik usulda yechilib, o'lchamsiz kattaliklarda quyidagi formula olindi:

$$q'(t') = \frac{4}{\text{Re} \cdot (1 + 2r_2')} \left\{ f_0 \int_0^{t'} a'_p(\xi) \left(1 - e^{-2a(t'-\xi)} + 2a\lambda_2' e^{-2a(t'-\xi)} \right) d\xi + \right.$$

$$+ 2a \sum_{k=1}^{\infty} \int_0^{t'} a'_p(\xi) \left[F(\alpha_k, \beta_k, t' - \xi) + \frac{w_k \varphi_k}{\psi_k} F(\alpha_{1k}, \beta_{1k}, t' - \xi) \right] d\xi \}. \quad (17)$$


bu yerda

$$a = \frac{1}{2\lambda'_1}, \alpha_k = 1 + \lambda'_2 \bar{a}_k^2, \beta_k = \sqrt{\alpha_k^2 - 4\lambda'_1 \bar{a}_k^2}; \alpha_{1k} = 1 + \lambda'_2 \bar{w}_k^2, \beta_{1k} = \sqrt{\alpha_{1k}^2 - 4\lambda'_1 \bar{w}_k^2}$$

$$\lambda'_1 = \frac{U}{l} \lambda_1, \lambda'_2 = \frac{U}{l} \lambda_2, F(A, B, t') = [\lambda'_2 chaBt' + (1 - \lambda'_2 aA) shaBt' / (aB)] e^{-aAt'}$$

Umumiy bosim (17) ifodani (12) tenglikka qo'yib topiladi.

2-rasmda neft relaksatsion xususiyatlarining plunjerga bo'ladigan umumiy bosimga ta'siri grafiklari $\mu = 0,1 Pa \cdot s$, $\rho = 900 kg/m^3$ qiymatlar uchun keltirilgan.



2-rasm. Plunjerga bo'ladigan umumiy bosimga neft relaksatsion xususiyatlarining ta'siri.

$$\mu = 0,10 Pa \cdot s, \rho = 900 kg/m^3.$$

$$a. 1 - \lambda_1 = \lambda_2 = 0; \quad 2 - \lambda_1 = 1 s, \lambda_2 = 0,5 s; \quad 3 - \lambda_1 = 2 s, \lambda_2 = 1 s;$$

$$b. 1 - \lambda_1 = \lambda_2 = 0; \quad 2 - \lambda_1 = 3 s, \lambda_2 = 1 s; \quad 3 - \lambda_1 = 5 s, \lambda_2 = 2 s.$$

Ko'rinadiki, plunjer tezlashishi jarayonida neftning qovushoq elastik xususiyatlari qovushoq suyuqlikka nisbatan umumiy bosim qiymatlarining kechikishiga olib keladi va ko'tarilish sekinlashganda aksincha, oshadi. Qovushoq elastik xususiyatlarning oshishi bilan qovushoq va qovushoq elastik suyuqlikning bosim profillari orasidagi farq ortadi. Bu, ayniqsa, sekinlashish paytida seziladi. $\lambda_1 - \lambda_2$ farq ortib borishi bilan qovushoq elastik xususiyatlarning ta'siri ko'proq namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning “**Neft quduqlarini chuqurda joylashgan nasoslar yordamida ishlatishda suyuqlikning plunjerga gidrodinamik bosimi**” nomli uchinchi bobida plunjerga gidrodinamik bosimni aniqlash masalasi shtang va ko'targich truba radiuslari nisbatiga oid ikkinchi bobda qabul qilingan farazdan foydalanmasdan yechilgan.

3.1-paragrafda ko'taruvchi truba va shtangalar orasidagi halqali bo'shliqda suyuqlikning laminar nostatsionar harakatida qovushoq suyuqlikning gidrodinamik bosimini aniqlash masalasi qaralgan. Masala

$$\rho \frac{\partial v}{\partial t} = \mu \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial v}{\partial r} \right) + q(t), \quad (r_2 < r < R). \quad (18)$$

harakat tenglamasi,

$$v(r, 0) = 0, \quad (r_2 \leq r \leq R); \quad v(r_2, t) = v_p(t), \quad v(R, t) = 0, \quad (t > 0) \quad (19)$$

boshlang'ich va chegaraviy shartlar hamda

$$\pi(r_1^2 - r_2^2)v_p(t) = 2\pi \int_{r_2}^R rv(r, t)dr. \quad (20)$$

tenglik yordamida ifodalanadi. Masala $q(t) = -\partial p / \partial z \approx \Delta p / L$ bosim o'zgarishini va umumiy bosimni topishdan iborat.

Laplas integral almashtirishini va Furening o'zgaruvchilarni ajratish usulini qo'llab, quyidagi formula olingan:

$$q'(t') = \frac{\alpha_*^2}{1 - \alpha_*^2} a'_p(t') + \frac{4A_\alpha}{\text{Re}} v'_p(t') - \frac{2}{\text{Re}} \cdot \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\beta_n \varphi_n}{\psi_{1n}} \cdot \int_0^{t'} a'_p(\xi) e^{-s_n(t'-\xi)} d\xi, \quad (21)$$

bu yerda $t' = \frac{U}{R}t$, $r' = \frac{r}{R}$, $v'_p(t') = \frac{v_p(t)}{U}$, $q'(t') = \frac{R}{\rho U^2 L} q(t)$,

$$\text{Re} = \frac{\rho R U}{\mu}, \quad \alpha_* = \sqrt{\alpha_1^2 - \alpha^2}, \quad \alpha = \frac{r_2}{R}, \quad \alpha_1 = \frac{r_1}{R},$$

$$\begin{aligned} d_1(x) &= J_0(\alpha x) - J_0(x); \quad d_2(x) = Y_0(\alpha x) - Y_0(x); \quad d_3(x) = \alpha J_1(\alpha x) - J_1(x); \\ d_4(x) &= \alpha Y_1(\alpha x) - Y_1(x); \quad d_5(x) = \alpha^2 J_0(\alpha x) - J_0(x); \quad d_6(x) = \alpha^2 Y_0(\alpha x) - Y_0(x); \\ d_7(x) &= J_0(x)Y_1(\alpha x) - J_1(\alpha x)Y_0(x); \quad d_8(x) = J_1(x)Y_0(\alpha x) - J_0(\alpha x)Y_1(x). \\ D_\alpha(x) &= J_0(\alpha x)Y_0(x) - J_0(x)Y_0(\alpha x); \end{aligned}$$

$$\varphi(x) = \frac{1 - \alpha^2}{4} x D_\alpha(x) + Y_0(x)d_3(x) - J_0(x)d_4(x); \quad \psi(x) = \frac{1 - \alpha^2}{2} x D_\alpha(x) - d_2(x)d_3(x) + d_1(x)d_4(x);$$

$$\psi_{1n} = (1 - \alpha^2)D_\alpha(\beta_n) + \frac{1 - \alpha^2}{2} \beta_n [\alpha d_7(\beta_n) + d_8(\beta_n)] + d_1(\beta_n)d_6(\beta_n) - d_2(\beta_n)d_5(\beta_n),$$


$$\varphi_n = \varphi(\beta_n), \quad \beta_n \quad (n = 1, 2, 3, \dots) \quad \text{lar} \quad \frac{1 - \alpha^2}{2} \beta D_\alpha(\beta) - d_2(\beta)d_3(\beta) + d_1(\beta)d_4(\beta) = 0$$

tenglamaning musbat ildizlari; $J_0(x), Y_0(x), J_1(x), Y_1(x)$ – nolinch va birinchi tartibli birinchi va ikkinchi tur Bessel funksiyalari. (21) ni

$$p(t) = \frac{\mu U L}{R^2} q'(t') + (L - h)\rho g + p_0, \quad (22)$$

tenglikka ga qo'yib, plunjerga qo'yilgan umumiy bosim topiladi.

Formula (22) bo'yicha hisoblangan umumiy bosim qiymatlari 2.1-paragrafda yassi truba uchun olingan (12) formula bilan hisoblangan qiymatlar bilan taqqoslab ko'rildi. Soddalik uchun, (22) ni masalaning doiraviy truba uchun yechimi, (12) ni yassi truba uchun yechimi deymiz. Umumiy bosimning mos qiymatlarini $p(t), p_p(t)$ deb belgilaymiz. Ular grafiklari $\alpha = 0,4$ hol uchun 3-rasmda keltirilgan. Ko'rinadiki, plunjerni ko'tarish jarayonining boshida yassi truba uchun umumiy bosimning qiymatlari doiraviy truba uchun hisoblanganiga qaraganda kam va faqat to'xtash momentida ozroq katta bo'lishi mumkin.



3-rasm. Halqasimon ($p(t)$) va yassi ($p_p(t)$) trubalar uchun plunjerga umumiy bosimning vaqt bo'yicha o'zgarish grafiklari. $\alpha = 0,4$.

a. $\mu = 0,04 \text{ Pa} \cdot \text{s}$, $\rho = 700 \text{ kg/m}^3$; b. $\mu = 0,100 \text{ Pa} \cdot \text{s}$, $\rho = 900 \text{ kg/m}^3$.

$\alpha = r_2 / R$ parametrning nisbatan kichik qiymatlarida doiraviy va yassi truba uchun hisoblangan bosim qiymatlari, ayniqsa, shtanga radiusining kichik qiymatlari uchun sezilarli darajada farqlanadi. Og'ir neft uchun α parametrning nisbatan katta qiymatlarida ikkala formula bo'yicha hisoblangan bosim qiymatlari kam farq qiladi.

3.2-paragrafda qovushoq elastik suyuqlik kuchlanish relaksatsiyasining plunjerga gidrodinamik bosimga bo'lgan ta'sirini modellashtirish qaralgan. (2), (4) tenglamalar,

$$v(r,0) = 0, \frac{\partial v(r,0)}{\partial t} = 0 \quad (r_2 \leq r \leq R); \quad v(r_2,t) = v_p(t), \quad v(R,t) = 0, \quad (t > 0)$$

boshlang'ich va chegara shartlar hamda (20) munosabat jarayonning matematik modeli bo'lib xizmat qiladi. (4) dan $\lambda > 0$, $\tau(r,0) = 0$ da urinma kuchlanish uchun quyidagini olamiz:

$$\tau(r,t) = \frac{\mu}{\lambda} \int_0^t \frac{\partial v(r,\xi)}{\partial r} e^{-\frac{t-\xi}{\lambda}} d\xi.$$

Ilgari kiritilgan bilan bir qatorda $\lambda' = \lambda U / R$, $c = 1 / \lambda'$ o'lchamsiz miqdorlarni kiritib, o'lchamsiz kattaliklarda quyidagilarni hosil qilish mumkin:

$$\frac{\partial v'}{\partial t'} = \frac{c}{\text{Re}} \frac{1}{r'} \frac{\partial}{\partial r'} \left(r' \frac{\partial}{\partial r'} \int_0^{t'} v'(r',\xi) e^{-c(t'-\xi)} d\xi \right) + q'(t'), \quad (\alpha < r' < 1). \quad (23)$$

$$\left(1 + \lambda' \frac{\partial}{\partial t'} \right) \frac{\partial v'}{\partial t'} = \frac{1}{\text{Re}} \left[\frac{1}{r'} \frac{\partial}{\partial r'} \left(r' \frac{\partial v'}{\partial r'} \right) \right] + \left(1 + \lambda' \frac{\partial}{\partial t'} \right) q'(t'), \quad (\alpha < r' < 1). \quad (24)$$

$$v'(r',0) = 0, \frac{\partial v'(r',0)}{\partial t'} = 0, \quad (\alpha \leq r' \leq 1); \quad v'(\alpha,t') = v'_p(t'), \quad v'(1,t') = 0, \quad (t' > 0). \quad (25)$$

$$\int_{\alpha}^1 r' v'(r',t') dr' = \frac{\alpha_*^2}{2} v'_p(t'). \quad (26)$$


Bu tenglamalarni Laplas almashtirishi va o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan yechib, o'lchamsiz bosim o'zgarishi uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$q'(t') = \frac{\alpha_*^2 v'_p(t)}{1 - \alpha^2} + \frac{4cA_\alpha}{\text{Re}} \int_0^{t'} e^{-c(t'-\xi)} v'_p(\xi) d\xi - \frac{4}{\text{Re}} \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\beta_n \varphi_n}{b_n \psi_{1n}} \int_0^{t'} v'_p(\xi) e^{-a(t'-\xi)} \sin ab_n(t'-\xi) d\xi. \quad (27)$$

bu yerda $a = 1/(2\lambda')$, $b_n = \sqrt{4\lambda' x_n^2 - 1}$, $x_n = \beta_n / \sqrt{\text{Re}}$.

Plunjerga umumiy bosimni (27) ni (22) ga qo'yib topiladi. Olingan formulalar yordamida parametrlarning $L = 1000 \text{ m}$, $h = 100 \text{ m}$, $U = v_m = 0,60 \text{ m/s}$; $\lambda = 0; 0,5; 1; 2; 3; 4; 5 \text{ s}$; $\mu = 0,100 \text{ Pa}\cdot\text{s}$, $\rho = 900 \text{ kg/m}^3$ qiymatlarida sonli hisoblashlar bajarildi.

4-rasmda plunjerning ko'tarilishida unga suyuqlik umumiy bosimining vaqt bo'yicha o'zgarishi grafigi keltirilgan. Ko'rinadiki, neftning relaksatsion xususiyatlari bosimning ham pasayishiga, ham oshishiga olib kelishi mumkin. Bunday holda, qiymatlarning eng katta farqi maksimal nuqtalarda va ko'tarilishning to'xtashi vaqtida kuzatiladi.



4-rasm. Plunjerning ko'tarilishida suyuqlik umumiy bosimining vaqtga bog'liqlik grafigi.

$$\mu = 0,1 \text{ Pa}\cdot\text{s}; \quad \rho = 900 \text{ kg/m}^3.$$

a. 1- $\lambda = 0$; 2- $\lambda = 0,5 \text{ c}$; 3- $\lambda = 1 \text{ c}$; 4- $\lambda = 2 \text{ c}$.

b. 1- $\lambda = 0$; 2- $\lambda = 3 \text{ c}$; 3- $\lambda = 4 \text{ c}$; 4- $\lambda = 5 \text{ c}$.

Suyuqlikning qovushoq-elastik xususiyatlari bosim maksimumining kechikishiga olib keladi. Relaksatsiya vaqtining oshishi bilan bosim farqi ortadi.

3.3-paragrafda qovushoq elastik suyuqlikning plunjerga bo'lgan bosimiga relaksatsiya va kechikish vaqtlarining ta'siri qaralgan.

Tenglamalar va qo'shimcha shartlarni o'lchamsiz kattaliklarda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\frac{\partial v'}{\partial t'} = \frac{c_2}{\text{Re}} \frac{1}{r'} \frac{\partial}{\partial r'} \left(r' \frac{\partial v'}{\partial r'} \right) + \frac{c_1}{\text{Re}} \frac{1}{r'} \frac{\partial}{\partial r'} \left(r' \frac{\partial}{\partial r'} \int_0^{t'} v'(r', \xi) e^{-\frac{t'-\xi}{\lambda_1}} d\xi \right) + q'(t'), \quad (28)$$

$$\left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t'} \right) \frac{\partial v'}{\partial t'} = \frac{1}{\text{Re}} \left(1 + \lambda_2 \frac{\partial}{\partial t'} \right) \left[\frac{1}{r'} \frac{\partial}{\partial r'} \left(r' \frac{\partial v'}{\partial r'} \right) \right] + \left(1 + \lambda_1 \frac{\partial}{\partial t'} \right) q'(t'), \quad (29)$$

$$v'(r', 0) = 0, \quad \frac{\partial v'(r', 0)}{\partial t'} = 0, \quad (\alpha \leq r' \leq 1); \quad v'(\alpha, t') = v'_p(t'), \quad v'(1, t') = 0, \quad (30)$$

$$\int_{\alpha}^1 r' v'(r', t') dr' = \frac{\alpha_*^2}{2} v'_p(t'), \quad (31)$$

bu yerda $\lambda'_1 = \frac{U}{R} \lambda_1$, $\lambda'_2 = \frac{U}{R} \lambda_2$, $c = \frac{1}{\lambda'_1}$, $c_2 = \frac{\lambda'_2}{\lambda'_1}$, $c_1 = c(1 - c_2)$.

Masalaning yechimi quyidagi ko'rinishda olindi:

